



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

- “Iqtisod va moliya” ilmiy-jurnal. № 7, 2016-yil.
9. Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2020-yil 56 bet.

A.Юсупов Особенности организации учёта активов в совместных предприятиях на основе международных стандартов	A.Yusupov Specific aspects of asset organization in joint ventures based on international standards
Аннотация. В статье дается общая характеристика деятельности совместных предприятий, а также освещаются организационно-правовые аспекты бухгалтерского учета элементов финансовой отчетности, таких как: основные средства, нематериальные активы, инвестиционная собственность, биологические активы, долгосрочные финансовые инвестиции, отложенные налоговые активы, долгосрочные активы, предназначенные для продажи, товарно-материальные запасы, дебиторская задолженность и денежные средства. Ключевые слова: совместные предприятия, МСФО, активы, долгосрочные активы, оборотные активы, основные средства, нематериальные активы, инвестиционное имущество, биологические активы, долгосрочные финансовые инвестиции, отложенные налоговые активы, долгосрочные активы, предназначенные для продажи, товарно-материальные запасы, дебиторская задолженность, денежные средства, финансовая отчетность.	Abstract. The article provides a general overview of the activities of joint ventures and covers the organizational and legal aspects of accounting for financial reporting elements. It also highlights the specific features of accounting for fixed assets, intangible assets, investment property, biological assets, long-term financial investments, deferred tax assets, long-term assets held for sale, inventories, accounts receivable, and cash. Keywords: joint ventures, IFRS, assets, long-term assets, current assets, fixed assets, intangible assets, investment property, biological assets, long-term financial investments, deferred tax assets, long-term assets held for sale, inventories, accounts receivable, cash, financial statements.

Alisher Bobaqulovich Ravshanov – SamISI mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-5204-2467

CHORVACHILIK XO‘JALIKLARIDA QORAMOLLARNI HISOBGA OLIISH MUAMMOLARI

Annatatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarida qoramollarni tasniflanishi, baholanishi, ularni hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha mavjud muammolar yoritilgan, mahsuldor va ishchi hayvonlarning ta‘rifi ishlab chiqilgan. 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” standartining mohiyati va asosiy qoidalari keltirilgan. Maqolada qoramollarni tan olish, boshlang‘ich va adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash, qoramollar va ulardan olingan mahsulotlarning haqqoniy qiymatini o‘zgarishidan olinadigan foyda yoki ko‘rilgan zarni hisobga olish tartibi keltirilgan. Kalitli so‘zlar: qoramollar, mahsuldor hayvonlar, ishchi hayvonlar, biologik aktivlar, biotransformatsiya, kapital qo‘yilmalari, boshlang‘ich qiymat, davomiy baholash, haqqoniy qiymat.
--

Kirish. Qishloq xo‘jaligi sohasida qoramolchilik muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri hisobga olish va samarali boshqarish tarmoq rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qoramollarning soni, haqqoniy qiymati, mahsuldorligi va ularning tarkibi haqida aniq va ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lish qishloq xo‘jalik korxonalari va investorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda aholisi sonining keskin oshib borishi, ekin maydonlarining qisqarishi va shurlanishi, ekologik iqlimning o‘zgarishi va davlatlar o‘rtasida siyosiy keskinlikni kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son farmonining 1-ilovasida qishloq xo‘jaligida - 4,8 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini hozirgi 40 milliarddan 2030-yilgacha 60 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha islohotlarni boshlash.

Qishloq xo‘jaligi uchun 52 trillion so‘m ajratib, dehqon va fermer xo‘jaliklari, sohadagi klasterlarni qo‘llab-quvvatlash[1] qishloq xo‘jaligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustivor

vazifalar sifatida belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu farmoni qishloq xo‘jaligini jumladan, chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, xalqimizni arzon va sifatli go‘sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirishda chorvaning ozuqa bazasini ko‘paytirish, naslchilikni yaxshilash, sun‘iy urug‘lantirishni rivojlantirish va naslchilik xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Buxgalteriya hisobi amaliyotda qoramollarni hisobga olish jarayonlarining yetarlicha raqamlashtirilmagani, ularni hisobga olish va baholashda inson omilining yuqori ulushi va nazorat mexanizmlarining zaifligi ushbu muammolar qatoriga kiradi. Bu esa o‘z navbatida ma‘lumotlarning noaniqligiga, rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda xatolarga hamda iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Shu bois, mazkur mavzuda qoramollarni hisobga olish tizimidagi mavjud muammolarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash hamda samarali yechimlar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Biologik aktivlarni hisobga olish tartibi 41-sonli Qishloq xo‘jaligi standarti (IAS) kontekstida keng muhokama qilingan. Ushbu standartga ko‘ra, qoramollar biologik transformasiyaga uchragan tirik hayvonlar sifatida belgilanadi. Biologik transformasiya natijasida vaqt o‘tishi bilan qiymat o‘zgaradi.

IAS 16 Asosiy vositalar esa, ishlab chiqarish jarayonlarida bir necha yillar davomida ishlatiladigan moddiy aktivlarni hisobga olish ketma-ketligini tartibga soladi.

Avvalgi tadqiqotlar biologik aktivlarni, jumladan qoramollarni noto‘g‘ri tasniflash moliyaviy hisobotlarda noaniqliklarga olib kelishini ta‘kidlaydi. Xususan, mahsuldor hayvonlar va ulardan olinadigan mahsulotlari o‘rtasidagi farqni aniqlamaslik daromadni o‘lchash va aktivlarni baholashning ishonchligiga ta‘sir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda IFRS standartlari, xususan, 41-IAS, IFRS-5 va IAS-36 standartlari, shuningdek, tegishli iqtisodiy adabiyotlar tahliliga asoslangan sifatli tadqiqot yondashuvi qo‘llaniladi. Milliy buxgalteriya amaliyoti va IFRS talablari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mahsuldor va ishchi hayvonlar hamda mahsuldor hayvonlardan olinadigan tayyor mahsulotlarini hisobga olishdagi amaliy masalalarni ko‘rsatish uchun amaliy holatlarga asoslangan yondashuv qo‘llaniladi.

Tahlil va natijalar. Qoramollar moliyaviy hisobotda biologik aktivlarning tarkibiy qismi sifatida hisobga olinib, ularni to‘g‘ri tasniflash va ma‘lumotlarni ochib berish moliyaviy hisobotning sifatini va ishonchligini yanada oshiradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq, biologik aktivlar va asosiy vositalar iqtisodiy tabiati jihatidan sezilarli darajada farq qiladi.

Biologik aktivlar - bu doimiy biologik transformatsiyaga uchragan tirik organizmlar, asosiy vositalar esa ishlab chiqarishda ishlatiladigan tirik bo‘lmagan resurslardir. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, biologik aktivlar odatda bozor sharoitlari va o‘zida biologik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi haqqoniy qiymat bo‘yicha o‘lchanadi. Asosiy vositalar esa aksincha, tarixiy qiymat bo‘yicha qayd etiladi va foydali muddati davomida amortizasiya qilinadi.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar asosan quyidagicha tasniflanadi:

Foyda keltirish muddatiga ko‘ra:

1. Uzoq muddatli foyda keltiradigan qoramollar:

- mahsuldor qoramollar;
- ishchi qoramollar.

2. Qisqa muddatli foyda keltiradigan:

- o‘stirishdagi qoramollar;
- boquvdagi qoramollar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida qoramollar asosan quyidagicha tasniflanadi:

1. Foyda keltirish muddatiga ko‘ra:

1. Uzoq muddatli foyda keltiradigan qoramollar:

- mahsuldor qoramollar;
- ishchi qoramollar.

2. Qisqa muddatli foyda keltiradigan:

- o‘stirishdagi qoramollar;
- boquvdagi qoramollar;
- yig‘ishtirib olish jarayonidagi biologik mahsulotlar (sut, gusht va b.).

IAS41ning asosiy muhim jihati mahsuldor hayvonlar va ulardan olinadigan biologik mahsulotlar alohida hisobga olinadi.

AQSh iqtisodchi olimi Dj. U.Kendrikning fikricha, mahsuldor hayvonlar – qishloq xo‘jaligida iqtisodiy qiymat yaratuvchi, ya‘ni go‘sht, sut, tuxum, jun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan tirik aktivlar hisoblanadi[2].

Iqtisodchi olim K.Ritsonning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar – fermer xo‘jaligida daromad keltiruvchi asosiy biologik resurs bo‘lib, ularning samaradorligi chiqarilgan mahsulot hajmi bilan baholanadi[3].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim A.A.Abdullaevning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar – qishloq xo‘jaligi korxonalarida iqtisodiy samara beruvchi, qayta ishlanadigan va bozorda sotiladigan mahsulotlar manbai bo‘lgan tirik vositalardir.

Ishchi hayvonlar – qishloq xo‘jaligida transport, yerga ishlov berish va boshqa og‘ir ishlar uchun foydalaniladigan, iqtisodiy samara keltiruvchi tirik mehnat vositalari hisoblanadi[4].

N.Q.Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar – inson tomonidan parvarish qilinib, ulardan muntazam ravishda mahsulot olishga mo‘ljallangan chorva turlaridir.

Ishchi hayvonlar – inson tomonidan parvarish qilinib, asosan mehnat funksiyasini bajarishga ixtisoslashgan chorva turlaridir[5].

Iqtisodchi V.I.Nazarenkoning fikriga ko‘ra, mahsuldor hayvonlar – agrar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi va qo‘shimcha qiymat yaratishga xizmat qiluvchi biologik aktivlar hisoblanadi.

Ishchi hayvonlar – agrar ishlab chiqarishda mehnat vositasi sifatida ishtirok etuvchi, mexanik energiya manbai bo‘lgan biologik aktivlardir[6].

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti maxsus agentligining qayd etishicha, ishchi hayvonlar – qishloq xo‘jaligida yer haydash, yuk tashish, sug‘orish va boshqa ishlarda quvvat manbai sifatida foydalaniladigan hayvonlardir. Ular ishlab chiqarish jarayonida energiya manbai bo‘lib xizmat qiladi[7].

Yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mahsuldor hayvonlarga berilgan ta‘riflarda asosiy urg‘u ularni qiymat yaratishiga, mahsulot berishiga qaratilgan. Xuddi shuningdek, ishchi hayvonlarga berilgan ta‘riflarda asosiy urg‘u ularning ishlov berish va mehnat funksiyasini bajarishga ixtisoslashganligiga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha bu ta‘riflar mahsuldor va ishchi hayvonlarning biologik aktiv sifatidagi mazmun-mohiyatini to‘liq yoritib bera olmaydi.

Bizning fikrimizcha, mahsuldor hayvonlar – xo‘jalik yurituvchi sub’ektda bir yildan ortiq muddatda mahsulot olish maqsadida parvarish qilinadigan biologik aktivlardir.

Ishchi hayvonlar – xo‘jalik yurituvchi sub’ektda bir yildan ortiq muddatda mehnat vositasi sifatida foydalaniladigan biologik aktivlardir.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar aktiv sifatida tan olinganda, ular boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanadi va hisobga olinadi.

Chorva qoramollari aktiv sifatida tan olinganidan so‘ng, boshlang‘ich yoki qayta baholangan qiymati bo‘yicha hisobga olinishi lozim. Qoramollarni qiymatini hisobga olishning qo‘llaniladigan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. [8].

Bundan tashqari, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida chorcachilik xo‘jaliklarida o‘stirishdagi va boquvdagi mollar quyidagicha baholanadi:

- sut yo‘nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar reja tannarxida baholanadi;
- go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar tirik vaznini tirik vaznning reja tannarxiga ko‘paytirilib baholanadi;
- ishchi hayvonlardan olingan nasl ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib olib baholanadi;
- chetdan sotib olingan o‘stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, barcha sotib olish va tashib keltirishga ketgan xarajatlar qo‘shib baholanadi;
- asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo‘yilgan mollar balans bahosida baholanadi;
- asosiy podaga o‘tkazilgan yosh mollar haqiqiy tannarxida baholanadi[9].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga (IAS 41) ko‘ra qoramollar dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy

qiymatda baholanishi lozim. Bozor narxlari mavjud bo‘lmagan yoki haqqoniy qiymatning muqobil baholashlari aniq ishonchsiz deb topilgan holatda, biologik aktiv jamg‘arilgan eskirish va jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zararlar chegirib tashlangandagi tannarxda baholanishi lozim[10]. Bu moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirish bilan bir vaqtda, xo‘jalik boshqaruvi va investorlari uchun samarali qarorlar qabul qilinishini ta‘minlaydi.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollar aktiv sifatida tan olinganda boshlang‘ich qiymat bo‘yicha baholanib, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotida hisobga olinadi. Qoramollarni tashkil qilish (shakllantirish) bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotida amalga oshiriladi. Qoramollarni boshlang‘ich bahosini aniqlab, balansga kirim qilinishiga 0840 -“Asosiy podani tashkil qilish” schyoti kreditlanib, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Qoramollarni xo‘jalik balansidan chiqarilishi 9210-“Asosiy vositalarning chiqib ketishi” schyotini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotini milliy buxgalteriya hisobi standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish maqsadida “Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari” deb qayta nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga ko‘ra qoramollar dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanib, “Uzoq muddatli biologik aktivlar” sifatida hisobga olinadi. Amaldagi milliy standartda (21-BHMS) biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning belgilanmaganligini hisobga olib, biz mazkur standartda nazarda tutilgan 0700-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalar” hisobga oluvchi schyotlar” qayta nomlab 0700-“Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb o‘zgartirishni, 0700-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalar” hisobga oluvchi schyotlar” esa 0135-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalar” schyotini ochishni taklif qilamiz.

Xuddi shuningdek, 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotini “Investitsion mulk” deb, 0180-“Ko‘p yillik o‘simliklar” schyotini “Mevali daraxtlar” deb qayta nomlashni taklif qilamiz.

Mazkur 0700-schyot tarkibida 0710-“Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”, 0720-“Uzoq muddatli biologik aktivlar (o‘simliklar)”, 0730-“Sotish uchun muljallangan biologik aktivlar” schyotlarni ochishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xo‘jalikning o‘zida yetishtirilgan yoki sotib olingan qoramollarni dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda baholanib, xo‘jalik balansiga kirim qilinishiga qabul qilish dalolatnomasiga asosan quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 0710 – “Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”,

Kredit 0840-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari”.

Balansga qabul qilingan biologik aktivning tannarxi va haqqoniy qiymati o‘rtasidagi salbiy farq summasiga:

Debet 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar”,

Kredit 0840-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari”.

Balansga qabul qilingan biologik aktivning tannarxi va haqqoniy qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq summasiga:

Debet 0710 – “Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)”,

Kredit 9390-“Boshqa operatsion daromadlar” buxgalteriya o‘tkazmalari beriladi.

Bizningcha yuqorida bildirilgan takliflar va qayta nomlashlar milliy buxgalteriya hisobi standartlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, buxgalteriya hisobining ma‘lumot berish, nazorat va tahlil qilish, rejalashtirish va hisobot funksiyalarini to‘laqonli bajarilishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Chorvachilik qoramollarini va ulardan olinadigan chorvachilik mahsulotlarini to‘g‘ri hisobga olish qishloq xo‘jaligi sohasida aniq va shaffof moliyaviy hisobotlarni ta‘minlash uchun juda muhimdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, IFRS, xususan, 41-IAS va 36-IAS qo‘llanilishi qoramollarni tasniflash va baholash uchun izchil asos yaratadi.

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida qoramollarni hisob va hisobot tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- chorvachilik xo‘jaliklarida qoramollarni to‘g‘ri tasniflash va baholash;
- milliy buxgalteriya hisob standartlarini 41-IAS, IFRS-5 va IAS-36 talablariga uyg‘unlashtirish;
- qoramollarni baholashda haqqoniy qiymat usulini keng joriy etish;
- chorva mollarini faol bozorlarini (akulsion savdosini) tashkil etish;
- BHMS-21ga biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarni kiritish orqali hisob ishlarini takomillashtirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qoramollarni to‘g‘ri tasniflash va baholash moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi va sub’ektlar o‘rtasida taqqoslashni kuchaytiradi. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro amaliyotlar bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>.
2. Kendrick J.W. Productivity Trends in the United States, Princeton University Press, 1961. [file:///C:/Users/Acer/Downloads/Productivity trends in the United States.pdf](file:///C:/Users/Acer/Downloads/Productivity_trends_in_the_United_States.pdf).
3. Ritson C. Agricultural Economics: Principles and Policy, CAB International, 2002.
4. Abdullaev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, Toshkent, 2010.
5. Yo‘ldoshev N.Q. Agrar iqtisodiyot asoslari, Toshkent, 2015.
6. Назаренко В.И. Экономика сельского хозяйства, Москва, 2008.
7. FAO, Livestock and draught animal power studies. https://www.fao.org/fileadmin/user_upload/ags/publications/draught_ap_overview.pdf.
8. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosi vositalar». <https://lex.uz/docs/7058293>.
9. K.B.Urazov, S.V.Vaxidov. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik, 2010 – 445 b.
10. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 41-Qishloq xo‘jaligi. [https://nrm.uz/contentf?doc=708861_ias_41_qishloq_ho%E2%80%98jaligi_buhgalteriya_hisobin_g_halqaro_standarti_\(av_tomonidan_09_12_2022_y_3400-son_bilan_ro%E2%80%98yhatga_olingan_moliya_vazirining_10_11_2022_y_61-son_buyrug%E2%80%98iga_26-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=708861_ias_41_qishloq_ho%E2%80%98jaligi_buhgalteriya_hisobin_g_halqaro_standarti_(av_tomonidan_09_12_2022_y_3400-son_bilan_ro%E2%80%98yhatga_olingan_moliya_vazirining_10_11_2022_y_61-son_buyrug%E2%80%98iga_26-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana).

А.Равшанов Проблемы бухгалтерского учёта крупного рогатого скота в животноводческих хозяйствах	A.Ravshanov Problems of accounting of cattle in livestock farms
Аннотация. В данной статье освещены существующие проблемы классификации и оценки крупного рогатого скота в сельскохозяйственных предприятиях, а также вопросы адаптации их бухгалтерского учёта к международным стандартам финансовой отчётности. Разработаны определения продуктивных и рабочих животных. Раскрыты сущность и основные положения МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство». В статье рассмотрены порядок признания крупного рогатого скота, его первоначальная и справедливая оценка, а также порядок учёта прибыли или убытков, возникающих в результате изменения справедливой стоимости животных и полученной от них продукции. Ключевые слова: крупный рогатый скот, продуктивные животные, рабочие животные, биологические активы, биотрансформация, капитальные вложения, первоначальная стоимость, последующая оценка, справедливая стоимость.	Abstract. This article addresses existing issues related to the classification and valuation of cattle in agricultural enterprises, as well as the adaptation of their accounting practices to international financial reporting standards. Definitions of productive and working animals are developed. The essence and key provisions of IAS 41 "Agriculture" are disclosed. The article discusses the recognition procedure for cattle, their initial and fair value measurement, and the accounting for gains or losses arising from changes in the fair value of animals and their products. Keywords: cattle, productive animals, working animals, biological assets, biotransformation, capital investments, initial cost, subsequent valuation, fair value.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.